



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

**I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON
TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI**
**SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVA'I'S LITERARY HERITAGE IN
WORLD CIVILIZATION**

NASIMIY VA NAVOIY NAZMI – BADIY TAFAKKURNING YANGI BAZMI

Boqijon To'xliyev,
filologiya fanlari doktori, professor,
O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
"Adabiyot nazariyasi" bo'limi mudiri
bokijontukhliev@inbox.ru
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/LTFA5064

Annotatsiya. Turkiy dunyo va uning madaniyati asrlar davomida shakllangan. Bu madaniyatning shakllanishida Nasimiy va Navoiylarning alohida o'rni bor. E'tiborli tomoni shundaki, har ikki ijodkorning asarlari turkiy ma'naviyatga munosib hissa qo'shishdan tashqari muayyan umumiyliklarga ham ega. Ushbu maqolada mana shu jihat haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: turkiy adabiyot, nazm, tasavvuf, maqomot, bosqich.

NASIMI AND NAVA'I'S POETRY – A NEW FESTIVAL OF ARTISTIC THOUGHT

Abstract. This article explores the commonalities between the works of Nasimi and Navoi, analyzing their contributions to Turkic spirituality and their influence on the cultural and literary development of the Turkic world over the centuries. Through a comparative examination, the study aims to identify thematic, stylistic, and philosophical parallels that underscore their significance in the broader historical and intellectual context.

Keywords: Turkish literature, poetry, mysticism, magaamat, stage.

Turkiy adabiyotda adib Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy, Lutfiylar nomini hurmat bilan tilga oladi. Navoiyning e'tiroflari orasida mavlono Nasimiyning alohida o'rni bor. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"da bu ijodkorni shunday eslaydi: "732.Sayyid Nasimiy q. r. Iroq va Rum tarafidag'i mulkdin erkandur. Rumiy va turkmoniy til bila nazm aytibdur va nazmida haqoyiq va maorif bag'oyat ko'p mundarijdur. Mazkur bo'lg'on mulk ahlig'a aning she'ri muqobalasinda hamonoki she'r yo'qdur. Hamono taqlid ahli ani mazhabida qusur tuhmatig'a muttaha qilib, shahid qildilar. Mashhur mundaqdurki, terisin so'yar hukm bo'lubdur. Ul holatda bu she'rni debdurki, nazm:

Qibladur yuzung nigoro qoshlaring mehroblar,
Surating mushafvale xolu xating e'roblar.

va bu she'rning taxallusi ushbu muddaog'a doldurkim, n a z m:

Ey, Nasimiy, chun muyassar bo'ldi iqboli visol,
Qo'y, teringni so'ysa so'ysun bu palid qassoblar" [Navoiy 2001, 478].

Nasimiy bilan bog'liq bo'lgan yana bir detal "Holoti Pahlavon Muhammad"da keltirilgan. Adib bu asarida Pahlavonning "g'arib ishlari va ajib zarofatlari" haqida gapirib, ularning "tab'g'a mujibi taajjub va aqlg'a boisi tahayyur" bo'lganini qayd etadi. Adib shu o'rinda g'azal maqtasini ham ketiradi:

*Gar Navoiy siymbarlar vaslin istab ko'rsa ranj,
Yo'q ajab, nevchunki, xom etgan kishi ranjur erur.*

Navoiy Pahlavon Muhammadning taxallusdagi "Navoiy" o'rniga "Nasimiy"ning qo'yib o'ishini maqsadga muvofiqroq ekanini ham maxsus ta'kidlaydi: "...va filvoqe' bu baytda Navoiy lafzidin Nasimiy lafzi munosibroqdur va faqir mutaajjib bo'ldum" [Navoiy 1990, 90], – deb yozadi.

Bularning barchasi Alisher Navoiyning butun turkiy ijodkorlar qatori Imoniddin Nasimiy ijodini ham puxta o'rgangani va uning she'riyatidagi mazmun va mundarijani ham, asosiy uslubiy yo'nalishlarni ham puxta o'zlashtirganini, uning boshqa turkigo'y adiblardan farq qilib turadigan jihatlarini juda nozik darajada kuzatganini yorqin tarzda namoyon etadi. Shunga qaramay, mazkur maqolada gap bu haqda emas, balki Nasimiyning bir g'azaliga Alisher Navoiyning bir asari, aniqrog'i "Lison ut-tayr"ning qanday qilib ochqich bo'lgani haqida. Buning uchun ishni bevosita Nasimiy g'azali matni bilan tanishishdan boshlash ma'qul ko'rinadi:

*Şənbə günü mən uğradım ol sərvî-rəvanə,
Şeyda qılıban saldı məni cümlə cəhanə.
Yekşənbə günü məcnun olub heyranı oldum,
Gördüm üzün, oxşatdım anı mahi-təbanə.
Düşənbə günü razi-dilimi dedim axır,
Ol gözləri nərgis, üzü gül, qası kəmanə.
Səşənbə günü səyyad olub seyrana çıxdım,
Mən seyd oluban qurban olum püstə dəhanə.
Çərşənbə günü yar gəzə gəldi cəməni içrə,
Bülbül dəxi gördü üzünü, düşdü fəğanə.
Pəncşənbə günü yarə dedim: pəndim eşitgil,
Faş etmə bu razi-dilimi yaxşı-yəmanə.
Adinə günü gördü camalını Nəsimi,
Əmdi ləbi-lə'li-şəkkərin ol qanə-qanə [Nəsimi 2004, 61].*

G'azal yetti baytdan iborat. Bu haftaning yetti kuni bilan uyg'un kelgan. Har bir kun alohida-alohida tavsiflar uchun omil bo'lgan. E'tibor berilsa, vasf shanba kunidan boshlanmoqda. Hozirgi tasavvurlardan farqli ravishda, Sharqda, jumladan, Ozarbayjonda ham hafta shanba bilan boshlanib, juma bilan yakunlangan.

Sharqda, jumladan, turkiy xalqlarda hafta kunlarini yaxshi va yomonga, "qutlug'" va "qutsiz"ga ajratish odatlari ancha qadimgi davrlardan beri amal qilib keladi. Jumladan, Yusuf xos Hojib o'n birinchi asrda "Kun, ay qutlug'i bar, ema qutsuzi" deb yozgan edi [1972, 656]. Mazkur g'azal ham mana shu e'tiqodning o'ziga xos ifodalari sifatida yuzaga kelgan. Har bir kunning ilohiylashtirilishi e'tiborni tortadi. Voqealarning shanbadan boshlanib odina (juma)da tugashi o'ziga xos ramzlar tizimidan xabar beradi. E'tibor berilsa, bunda vaqtning bir o'lchamlilik bilan bog'liq bosh xususiyatiga tayanilgan. Unga ko'ra, vaqt faqat ilgarilab yuradi, xolos. Vaqtning mana shu xislati g'azaldagi voqealarning ham asosiy mohiyatiga ishora qiladi. Bundan lirik qahramonning oshiqligi, uning yor bilan ilk uchrashuvini tasavvur qilish mumkin. Keyingi kunning yakshanba ekani ham ushbu mulohazani tasdiqlaydi. Yetti bayt – yetti kun bilan bog'liq. Ularni rivojlanish darajasiga ko'ra shunday tasavvur etish mumkin:

yechim

odina (juma) Voqea yakun topgan kun

payshanba Voqea rivoji

chorshanba Voqea rivoji

seshanba Voqea rivoji
dushanba Voqea rivoji
yakshanba Voqea rivoji
shanba Voqea boshlangan kun – tugun

G'azalda o'ziga xos voqealar tizimi mavjud. Uni shartli ravishda "lirik sujet" deyish mumkin. Zero, unda "voqea"larning boshlanishi (matla) va oxiri (maqta) ochiq ko'rinib turibdi. Syujetning "boshqa qismlari" esa (matla bilan maqta orasidagi besh bayt) "voqea rivoji"ni tashkil etadi.

Haftaning har bir kuni inson umrining pillapoyalari tarzida tasavvur etilishi ham mumkin. Bunda matla insonning hayotga kelishini, oradagi baytlar umrning alohida lahzalarini, matla esa umr poyonini tamsil etadi.

Mazkur g'azal yana bir jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi. U tasavvuf ilmidagi komil inson bosib o'tishi lozim bo'lgan hayotiy pillapoyalar ramzi sifatida ham tasavvur etilishi mumkin. Bu "Lison ut-tayr"da tasvirlangan "yetti vodi"y" mafhumi bilan aloqador. Asarda "Bir qush"ning savollari ("Asli manzilg'a ne yanglig' yetkobiz?" (LT, 213) va unga berilgan javoblar Nasimiy g'azali bilan nihoyatda zich yaqinlikni namoyon etadi. Esga olaylik: o'sha qush savoliga Hudhud mana bunday javob bergan edi:

Dedi Hudhudkim: — «Ayo rahrav rafiq,

Bu savoling voqe' o'ldi bas daqiq.

Chun so'rarsen bu safar kayfiyatin,

Manzil-u vodi' nashot-u shiddatin...

Ollimizda yetti vodi'yur azim,

Har birida behad-u andoza biym... [Navoiy 1990, 213-214]

Ma'lum bo'ladiki, Nasimiyning yetti baytli g'azalining har bir bandida "ko'rinib turgan" hamda Alisher Navoiyning yuqorida keltirilgan mulohazalariga yaqin yana bir ma'no qatlami ham mavjud ekan. Keyingi qismdagi mulohazalar ayni mana shu muammoga bag'ishlangan.

G'azalda inson kamolotining pillapoyalari ham o'ziga xos tasvirini topgan. U, ayni paytda, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi yetti vodi'y tasvirini yodga soladi. Unga ko'ra, bu vodiylar quyidagicha edi: Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Faqru Fano). Tasavvurning oydinlashishi uchun Nasimiy g'azalidagi baytlar va Navoiy masnaviysidagi bandlarni yonma-yon keltiramiz:

Nasimiy baytlari	Navoiy bandlari
Shanba kuni man uchradim ul sarvi ravona, Shaydo qilibon soldi mani jumla jahona.	Vodiyi avval — Talab vodiysidur, Boshlag'on ul yon sharaf hodiysidur.
Yakshanba kuni Majnun o'lib, hayroni o'ldim, Ko'rdim yuzin, o'xshatdim uni mohi tobona.	Ishq vodiysidur ondin so'ngra bil, Ul o't ichra boru yo'qni o'rtagil,
Dushanba kuni rozi-dilimni dedim oxir, Ul ko'zlari nargiz, o'zi gul, qoshi kamona, Seshanba kuni sayyod o'lib, sayrona chiqdim, Men sayd o'libon, qurbon o'lam pistadahona.	Ishq chun qildi vujudingni adam, Ma'rifat vodiysig'a urdung qadam. So'ngra Istig'nog'a vodi'yur vase' Pastdur junbida bu charxi rafe'.
Chorshanba kuni yor keza keldi chaman ichra, Bulbul daxi ko'rdi yuzini, tushdi fig'ona.	Vodiyi Tavhid bil, ondin nari, Fard bo'lmoq necha borsang ilgari.
Panjshanba kuni yora dedim, pandim eshitgil, Fosh etma bu rozi dilimi yaxshi-yomona. Odina kuni ko'rdi jamolini Nasimiy, Ichdi labi la'lin shakarini ul qona-qona	Mundin o'tsang vodiyi Hayratdurur , Vodiyi Hayratda ko'p shiddatdurur Borchadin so'ng vodi'y Faqru Fano , O'tmas ondin sayr ila solik yano.

Yetti vodiyni bosib o'tishdan muddao "oliy manozil"ga (Alisher Navoiy) yetishdan iborat. Keling, baytlarni mana shu vodiylar mohiyati bilan uyg'unlik darajasini kuzataylik. Buning uchun har bir vodiylar nomini shartli ravishda har bir baytning sarlavhasi sifatida belgilab olamiz.

Talab

*Shanba kuni man uchradim ul sarvi ravona,
Shaydo qilibon soldi mani jumla jahona.*

Shanba – haftaning birinchi kuni. Boshqacharoq aytiladigan bo'lsa, lirik qahramon – solikning ishq yo'liga kirib kelayotganiga, uning ilk qadamiga ishoradir. "Ul sarvi ravon" irfoniylar olamdagi go'zal mahbuba, aniqrog'i, unga bo'lgan muhabbat, unga bo'lgan ishqqa talabgorlikdir. Bu talabgorlik uni ancha qiyin ahvolga solib qo'ydi, u izzatlar ichida qoldi.

Aslida insonning yaratganning kuch-u qudrati, haybati oldida ojiz-u notavonligini tan olishi ham tasavvufdagi ilk qadamlarning me'yor va mezonlaridan joy olgan. Zero, Navoiy aytganiday:

*«Chun Talab vodiysig'a qo'ysang qadam,
Ollingga har dam kelur yuz ming alam»* [Navoiy 1996, 214].

Ushbu bosqich solik – oshiq uchun ham o'ziga xos sinov maydonlaridir:

*"Har dam onda yuz malolat yuzlanur,
Har nafas ming sa'b holat yuzlanur.
Istamak ranji ko'ngulni zor etar,
Topmamog'lig' ruhni afgor etar"* [Navoiy 1996, 214].

Navoiy aytgan mana shu alomatlarining barchasi mazkur bayt mazmunini tashkil etib turibdi. Keyingi bayt mazmunini bilan tanishamiz.

Ishq

*Yakshanba kuni Majnun o'lib, hayroni o'ldim,
Ko'rdim yuzin, o'xshatdim uni mohi tobona.*

Bayt mazmunini yorni ko'rish – ilohiy tajallining ro'y berayotgani haqidagi axborotga tayanadi. Yorning yuzi – borliqning ko'z oldida namoyon bo'lishi bo'lib, bunda solik olam hodisalariga bir mahzar tariqida qarash darajasiga etadi. Bu ishqning ilk qadamlaridan biridir. Lirik qahramon o'zini Majnunga qiyoslamogda. Mumtoz adabiyotda Majnun – ishq timsoli. Demak, bayt va vodiylar nomining unga sarlavha bo'lishi o'rtasida bevosita bog'lanish mavjud. Navoiyning ta'kidicha,

*"Ishq aro poku qalandarlik kerak,
Shu'la bahrida samandarlik kerak.
Kuymak ishtur oshiqi devonag'a,
Shu'la ichra o'ylakim parvonag'a"* [Navoiy 1996, 219].

Bu yo'l uzun va mubham. Ushbu daraja hali minzilning oxiri emas, bor-yo'g'i boshlanishi, xolos. Shunga ko'ra:

*Barcha qushning oti bulbul bo'lmadi,
To azaldin ishq aro kul bo'lmadi.
Kuymagan ishq ichra ermas ishqboz,
Oshiq ermas ulki ermas jongudoz.
Shod erur ishq ahli o'rtanmak bila,
Bo'lmag'ay bu sheva o'rganmak bila"* [Navoiy 1996, 219-220].

Mana shu andozalar bilan yuqordagi bayt mazmuniga e'tibor qaratilsa, ularning uyg'unlik darajasi nechog'li yuksak ekaniga amin bo'lish oson kechadi. Ishqda Majnun

darajasining e'tirofiyoq mana shu uyg'unlikning o'zagini tashkil etadi. Yorning olamdagi barcha narsa va hodisalardan, kishilardan ustun qo'yilishi uning "mohi tobonligida mujassamlashgan. "Mohi tobon"ning ham balandda, ham yorug', ham chiroyli ekani yaxshi ma'lum. Navoiy talqinidagi Majnunlik – kuyish, o'rtanish va izzatirob chekish demakdir.

Ma'rifat:

*Dushanba kuni rozi-dilimni dedim oxir,
Ul ko'zlari nargiz, o'zi gul, qoshi kamona.*

Ma'rifat vodiysi – irfoniylar bilimlar makoni, ammo bu makonning cheku chegarasi yo'q. Alisher Navoiy kitobxonga yordam ma'nosida bu olamning "Dashti bepoyonlig'in" maxsus ta'kidlaydi. Bu darajaga erishgan solik olam rang-barangligini ko'rib, kuzata oladi. Shu go'zallikni ko'ra olganidan iftixor qiladi. Nasimiyni yor go'zalligi haqidagi e'tiroflarida ayni mana shu holat namoyon bo'ladi. Demak, solik yor timsolida ilohiy olamning ayrim (ko'z, qosh) alomatlarini his eta boshlaydi.

Alisher Navoiy qalamidagi "Ma'rifat vodiysining vasfi" mana bunday:

*«Ma'rifat vodiysin ondin so'ngra bil,
Dashti bepoyonlig'in nazzora qil.
Kimki bu vodiyg'a bo'ldi muttasif,
Topti anda hollarni muxtalif... [Navoiy 1996, 224]
Bu mahalda gar gadodur, gar muluk,
Har bir o'zga yo'l bila aylar suluk...
Bo'ldi o'z irfoni har kimga sifat,
Ko'p tafovut qildi paydo ma'rifat... [Navoiy 1996, 258]*

Bularning barchasini yanada aniqroq tasavvur etish uchun prof. N.Komilov izohlari dan ko'mak olamiz:

"Ma'rifat ilmi botiniy ilm deb ham yuritilgan. Chunki tasavvuf ahli dunyoviy va diniy ilmlarni birga qo'shib, «zohiriy ilmlar» deb ataganlar. Ularning uqtirishicha, zohiriy ilmlar bilan Xudoni bilish qiyin. Biroq, boshqa bir nuqtayi nazar ham bor: garchi zohiriy bilimlar Haq taolo asrorini anglashga yaroqsiz bo'lsa-da, lekin dunyoni bilish Ollohni bilishning birinchi bosqichi, ya'ni Ollohni bilish dunyoni bilishdan boshlanishi kerak, chunki dunyo – kasrat ko'plik olami, Ollohnin ijodi. Uning sifatlari, qudratini namoyon etib turadigan ko'zgu..." [Komilov 1996, 272, 36-37].

Demak, ma'rifat kamolot yo'lidagi bir bosqich sifatida kamolot sari intilayotgan solik uchun olamning turfaligini anglash imkonini beradi.

Nasimiyni navbatdagi baytiga "Istig'no" deb sarlavha qo'yildi. Demak, g'azaldagi lirik qahramon yo'lda davom etadi. U yangi vodiya qadam qo'yadi. U yor (olam) go'zalligini his etishda davom etadi. Uning yangi-yangi qirralarini mushohada qila boshlaydi. O'quvchi (tinglovchi)ga bu tuyg'ularni etkazish maqsadida uning tasavvuridagi mavjud (sayyod, sayd) obrazlardan foydalanishga harakat qiladi.

Istig'no

*Seshanba kuni sayyod o'lib, sayrona chiqdim,
Men sayd o'libon, qurbon o'lam pistadahona.*

Demak, u o'zini ovchi (sayyod) o'rnida ko'rar ekan kutilmaganda, o'zining ham ovlanganini, ya'ni bu go'zallik qarshisida lolu hayron, qolaversa, taslim bo'lganini tan oladi. O'rni kelganida aytish lozimki, ov va ovchilik motivi mumtoz adabiyotimizda, ayniqsa, tasavvuf davri adabiyotida ancha faol qo'llangan.

Baytdagi “pistadahon” obrazi e'tiborga molik. “Dahon” (og'iz), shuningdek, lab timsollari qo'llanishiga ko'ra ko'plab ramziy ma'nolarni ifodalashi mumkin. U yorning tashqi go'zalligi, chiroyi va latofatining o'ziga xos “o'lchov birliklari”dan biri bo'lib keladi. Og'iz va lab qanchalik kichik va yupqa bo'lsa, yorning go'zalligi shunchalik kuchli, baland hisoblanadi. Ayni paytda u “yor”ning, demakki, ilohiy-irfoniy e'tiborning ham ramzi bo'lib kelishi mumkin. Unda bu so'z Allohni, uning buyukligini anglatadi. Hozirgi holatda ham shu ma'no ko'zda tutilgan.

Ayni vodiyning “Lison ut-tayr”dagi Istig'no vodiysining bayoni tasavvurlarni yanada oydinlashtiradi:

– «*Vodiy ondin so'ngra Istig'nodurur,
Onda teng a'lou gar adnodurur.
Har dam istig'no eli bo'lg'onda tez,
Solibon ofoq aro yuz rustaxe.
Yog'ib istig'no sahobidin yog'in,
Yuz tuman olamni suv eltur sog'in*» [Navoiy 1996, 230].

Ushbu tasvirlar fonida Nasimiy lirik qahramonining “ovga chiqib” o'zining ovlangani mana shu kuch-qudrat e'tirofi va e'tiqodining o'ziga xos ifodasi, “solikka bas dushvor” ekani oshkor bo'ladi.

Chorshaba kun “voqealari” solik – yo'lovchining yorni chamanzorda ko'rishi bilan bog'liq. Bu ilohiy sirlar mohiyatidan xbardorlikning yana bir o'ziga xos darajasidir. Bunda bulbul o'zini ko'rib fig'on-u nolalarga kirishganiday, bu go'zallik oldida oshiq ham o'zini yo'qotadi. Ayni holatda u o'zini ko'ra boshlaydi ham. Aslida bu ham o'zlikni tanishning yana bir bosqichidir. U bejiz “tavhid” deyilmaydi.

Tavhid

*Chorshanba kuni yor keza keldi chaman ichra,
Bulbul daxi ko'rdi yuzini, tushdi fig'ona.*

Chaman, bo'ston, guliston orif ko'ngil martabalaridan biri bo'lib, undagi ko'ngilning ochiqligi va samimiyatini anglatadi [Bertels 1965, 136].

*«Vodiyi Tavhid ondin so'ngra bil,
Fard o'lub tajrid ondin so'ngra bil.*

“Tavhid” yagonalik, vahdat, “birlashish” degan lug'aviy ma'nolarga ega. Tasavvufda u “yaratganning yagonaligiga e'tiqod qilish” ma'nosini anglatadi.

“Tajrid”ning ma'nosi “boshqalardan uzoqlashish”, “yakka-yu yolg'iz” bo'lishdan iborat [Фарҳанги ... 1969, 359]. Bunday asosiy mohiyat Xudoning yagonaligiga e'tiqod qilishdan iboratdir”. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da donishmand Sariy tilidan “ma'rifatning ibtidosi — yolg'iz Haq bilan bo'lish uchun nafsni poklashdir” degan hikmatni keltiradi [Navoiy 2001, 46].

*Chun bu vodi y sori sayring qo'ydi gom.
Fardu yaktolig' sanga bo'ldi maqom...
Chun sening olingg'a tushti bo'yla pech,
Bilki ermish birdin o'zga barcha hech.
Bir bo'l-u, bir ko'r-u, bir de, bir tila,
Mayl qilma munda ikkilik bila.
Ikkilik bu yo'lda ahvolliqdurur,*

Sirri vahdatdin mu'attaliqdurur» [Navoiy 1996, 233-234].

Bundan kelib chiqadigan asosiy to'xtam shuki, “har bir inson Xudoni o'zidan izlasin. Uning qudrati va shavkatini o'zida ko'rsin. Mazkur aqida «Kimki o'zini tanisa

Rabbini taniydi» degan hadis mazmunidan kelib chiqadi. Barcha hikmatlar, hodisot va mo'jizalar inson xilqatida joylashgan. Zero, Olloh taoloning so'zi bor: «Men yashirin xazina edim va sizni sevib qoldim, toki Meni bilib olinglar va jinlar, odamlarni yaratdim, toki Meni bilinglar». Inson maxluqotning, olamlarning gultoji, Olohning erdagi xalifasi ekan, demak, unda Olloh sifatlari bo'lishi mantiqiy hol. Bundan tashqari, «yashirin xazina» bo'lgan Olloh taolo ilmu hikmatning bir qismini inson qalbiga joylagan. Ya'ni inson «yashirin xazina»ni saqlovchi xazinadordir. Shu bois inson ko'ngli «irfon maxzani» [Komilov, 41]. Mana shu xazina esa uni yana oldinga chorlab turadi.

Hayrat

Panjshanba solikning o'z holatini anglashdagi yangi bosqich. Bu bosqichda solik – oshiq Alisher Navoiy tavsifidagi tuyg'ular ichida yashay boshlaydi:

*Hayrat aylar tilni gungu lol ham,
Aql zoyil, hushni pomol ham.
Kechayu kunduzga boqsa har necha,
Onglamlas kunduzmudur yoxud kecha* [Navoiy 1996, 237].

Xuddi shuning uchun ham Yorga murojaatdagi iltimos, o'tinch ohanglari bejiz emas:

*Panjshanba kuni yora dedim, pandim eshitgil,
Fosh etma bu rozi dilimi yaxshi-yomona.*

Hol va holatning sharhi ham "Lison ut-tayr"da juda yorqin tarzda berilgan:

*Harne kasb aylab edi tavhidaro ,
Vodiyi tafrid ila tajrid aro.
Barchasi ondin bo'lur mahv-u adam,
Yo'qki hosil qilg'olikim o'zi ham.
So'rsalarkim bormusen yo yo'qmusen,
Hech qaysi yo ikkisi-o'qmusen ...* [Navoiy 1996, 238].

Shunday tavsiflardan keyin anglash mumkinki, Nasimiyning lirik qahramoni bejiz iltimos qilmagan.

Hafta tugamoqda. Demak, yo'l ham oxirlamoqda. Manzil va maqsad ham shunga mos va munosib.

Faqr-u Fano

*Odina kuni ko'rdi jamolini Nasimiy,
Ichdi labi la'lin shakarini ul qona-qona.*

Jamol "ma'shuqa husnining zohir bo'lishi", boshqacharoq aytganda, sodiq oshiq uchun ilohiy sirlarning ochila borish darajalaridan biridir. Bunda oshiq mushohadalarining tiniqlashib borishi ham ko'zda tutiladi..

Buni anglash uchun yana "Lison ut-tayr"ga murojaat etamiz:

*«Mundin o'tsa o'trug'a kelmas yano,
Yo'l aro juz vodiyi Faqr-u Fano.
Yo'q bu vodiy ichra juz xomushluq,
Gung-u kar bo'lmog'lig'u behushluq.
Chun talotum ko'rguzub bahri amiq ,
Yuz tuman olam bo'lub onda g'ariq ...* [Navoiy 1996, 252].
*Foniyi mutlaqdurur gar xud baqo,
Istasang qilmoq kerak o'zni fano»* [Navoiy 1996, 252].

Nasimiyning birgina g'azali bilan tanishib turib, ularda bir insonning hayot (irfoniy) yo'li tasvirini kuzatish mumkin. Unda o'sha insonning ilk qadamlaridan

boshlab barcha hayotiy hodisalar alohida-alohida lavhalar sifatida tasvir etilgan. Nasimiy tasvirlagan inson odamning olam oldidagi tasavvur va tushunchalaridagi rang-baranglik, hayrat va zavqni oddiy va sodda hayotiy lavhalarda ko'rsatib berishi bilan e'tiborga molik. Shunga qaramay, Nasimiyning g'azalini o'qish bilanoq bu go'zalliklarni birdaniga ko'rish, ilg'ab olish qiyin, balki mumkin ham emas. Zero, ularning yuzida ma'no kelinchagini irfoniy pardalari "tortug'liq" turibdi. Mana shu pardalarni ochishda esa Amir Alisher Navoiyning nozik va nodir hamda serma'no va qodir kuzatishlari, tasvir va xulosalari beqiyos ochqich vazifasini ado etmaganida biz, XXI asr kishilari shunchalik buyuk hayrat, takrorlanmas iste'dod va teran tafakkur mevalaridan bebahra qolgan bo'lar edik.

Hali Nasimiy g'azalining o'ziniyoq boshqacharoq yondashuv va andozalar bilan talqin va tahlil etish imkonlari turibdi. Qolaversa, uni irfoniy tadqiq etishning yanada rang-barang shakl va usullarini ham inkor etish mumkin emas. Bu borada Alisher Navoiy aytgandaridek:

*Bu yeti vodiy dog'i ijmol erur,
Lek tafsilda ko'p ishkol erur.*

Albatta, bular dastlabki kuzatishlar, xolos. Bu borada hali yanada jiddiyoq va batafsilroq tadqiqotlarning yuzaga kelishi tabiiy. Zero:

*Lek manzildin xabar bermas birav,
Kim bu yo'ldii yonmadi bir rohrav.*

Shunday ekan, matn va uning talqini ham rang-barang bo'lishi tabiiy.

Alisher Navoiy asarlarining marifiy ahamiyati o'z-o'zicha ham yuksak va bepoyon. Shunga qaramay, mutafakkir adib asarlarining boshqa mumtoz asarlar mazmuni va mohiyatini idrok etishdagi o'rni va ahamiyati ham naqadar yuksak ekani birgina misoldan ko'rinib turibdi. Bu ulkan dengizdan birgina qatra, xolos. Dengiz esa butun navoiyshunoslarni o'ziga chorlab turibdi.

Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. МАТ. Йигирма томлик. 16 т. Лисон ут-тайр.Изоҳлар билан нашрга тайёрловчи Ш.Эшонхўжаев. – Тошкент, Фан, 1996. – Б. 328.
2. Алишер Навоий. МАТ. Йигирма томлик. 6 т. Хазойин ул-маъоний. Фавойид ул-кибар. Илмий-танқидий текст асосида нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймонов. – Тошкент, Фан, 1990. – Б. 516 б.
3. Алишер Навоий. МАТ. Йигирма томлик. 17 т. Насойим ул-муҳаббат. Нашрга тайёрловчилар С.Ғаниева, М.Мирзааҳмедова. – Тошкент, Фан, 2001. – Б. 520.
4. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. – Москва, Наука, ГРВЛ, 1965, – С. 524.
5. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. – Тошкент, "Ёзувчи", 1996 – Б.272. 36-37-бетлар.
6. Комилов Н. Тасаввуф. Тавҳид асрори. Иккинчи китоб. – Тошкент, "Ёзувчи", 1999 – Б. 208.
7. İmadəddin Nəsimi. Seçilmiş əsərləri. İki cild. I cild. Bakı, "Lider nəşriyyat", 2004, 336 səh.
8. Имодиддин Насимий. Жононни севарман (Озарбайжон тилидан Тоҳир Қаҳҳор таржимаси). - Тошкент: "Билим ва интеллектуал салоҳият" нашриёти, 2019, 24-бет.
9. Осман Нури Топбаш. В испытании мусульманитна самим собой. Тасаввуф. Перевод с турецкого Наталья Наджиоглу. – Стамбул, 1436/ 2015.
10. Саид Жаъфар Сажжодий. Фарҳанг-э истилоҳоту таъбироти ирфони. – Техрон, 1303.
11. Фарҳанги забони тожики. Жилди 1. – Москва, Энциклопедия, 1969. С. 952.
12. Фарҳанги забони тожики. Жилди 2. – Москва, Энциклопедия, 1969. С. 948.
13. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи Қ.Каримов. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 964.

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO'BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o'rni	136
Nusratullo JUMAXO'JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g'azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo'qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta'sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G'iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an'analari	193
Islomjon YAQUBOV. O'zaro ta'sir, ijodiy mushtaraklik va o'ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O'zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo'ldosh PARDAYEV. Navoiy g'azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog'langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na't boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o'rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBLOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622